
HUKM USTIDAN APellyATSIYA SHIKOYATINI BERISH

Ўzбекистон Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan 869-son qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, Kodeks **quyidagi boblar** bilan to'ldirildi: *Hukmlarning, ajrimlarning, qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishning umumiy shartlari;*

Sudning hukmi, ajrimi ustidan taftish tartibida shikoyat (protest) berish Shunga muvofiq: Sud hukmlari, ajrimlari, qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi **apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida** tekshirilishi mumkin. Jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida ko'rishda **prokuror ishtirok etadi**. Sud jinoyat ishini apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida ko'rishda **shikoyat yoki protest vajlari bilan chegaralanmaydi** va ishni barcha mahkumlarga, *shu jumladan tegishli shikoyatni bermagan shaxslarga yoki o'ziga nisbatan shikoyat (protest) berilmagan mahkumlarga* nisbatan ham **to'la hajmda tekshiradi. Mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, jabrlanuvchi, uning vakili** birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish tartibida ko'rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, *shuningdek apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudlarining hukmlari, ajrimlari* ustidan taftish tartibida **shikoyat berishga haqlidir**.

Agar shikoyatda yoki protestda og'irroq jinoyat to'g'risidagi qonunni qo'llash zarurligi haqidagi, jazoni kuchaytirish to'g'risidagi yoki **mahkumning ahvoli yomonlashishiga olib keladigan boshqa o'zgarishlar haqidagi masala qo'yilgan bo'lsa**, sudning ayblov hukmini yoxud ajrimini taftish tartibida qayta ko'rib chiqishga, shuningdek sudning oqlov hukmini yoki ishni tugatish to'g'risidagi ajrimini taftish tartibida qayta ko'rib chiqishga **faqat u qonuniy kuchga kirganidan keyin 1 yil ichida** yo'l qo'yiladi. Hukm chiqargan sud jinoyat ishi taftish instansiyasi sudiga yuborilganligi to'g'risida tegishli shaxslarni **3 sutka ichida** xabardor qiladi. Qonun bilan shuningdek, hukm ustidan apellyatsiya **shikoyatlarini (protestlarini)** berish muddatlari **20 sutkadan 10 sutkaga** qisqartirildi.

Shuningdek, sud hukmi, ajrimini va qarorini ijro etish chog'ida yuzaga kelgan masalalarni hal qilish to'g'risidagi **ajrim ustidan xususiy shikoyat berish va xususiy protest** bildirish tartibi belgilandi.

Farg'ona guman adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

A.L.Nabijonov

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2023-09-30 16:07:40